

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARBI EKSPORT SALOHIIYATI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI**Shadiyev Asror Ashurovich***Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti*

Annotatsiya. Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning eksport salohiyatini rivojlantirish tendensiyalari ko‘rib chiqiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirish yo‘llari belgilab olindi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import, saldo.

Аннотация. В статье рассматриваются тенденции развития экспортного потенциала субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства. Определены пути повышения экспортного потенциала субъектов малого бизнеса и предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, внешнеторговый оборот, экспорт, импорт, сальдо.

Abstrakt. The tendencies developments export potential of small business and private entrepreneurship will considered in this article. It is given the ways of increasing export potential of small business and private entrepreneurs.

Keywords: inancial business, private enterprise, foreign exchange, export, import, balance.

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ko‘zga tashlanadigan yutuqlarga erishmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev eksportni rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida “O‘tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni ta’kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2024-yilda O‘zbekiston o‘z iqtisodiyotini barqaror sur‘atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta’minladi, dunyo bozoridagi o‘z pozitsiyasini mustahkamladi. Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya’ni 11,6 foizga o‘tdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo‘lmagan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 120 million AQSH dollaridan oshdi” - deb alohida ta’kidlab o‘tdilar [4].

Tahlil va natijalar.Co‘nggi yillarda respublikamizning bir qator iqtisodchi olimlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Jumladan, M.Boltabayev[3], N.Sirojiddinov[4] va boshqalar o‘z asarlarida marketing tizimini korxona eksport salohiyatini kuchaytirishning ilg‘or usuli ekanligiga katta e‘tibor qaratilgan. A.Bekmurodov, R.Tursunov, I.Xotamovning[4] ishlarida GM-Uzbekiston qo‘shma korxonasining tashqi iqtisodiy faoliyati o‘rganilgan, tahlil qilingan va uni rivojlantirish istiqbollari aniqlangan.

2024 yil Mamlakatimiz eksporti va importining tovar va geografik tarkibini takomillashtirish borasida yangi bozorlar, yangi transport yo‘laklarini topish, bir so‘z bilan aytganda faol marketingga asoslangan tashqi iqtisodiy siyosat yurgizish zarur. Tashqi savdo aylanmasini diversifikatsiyasi, ya‘ni xorijga eksport – import qilinayotgan tovar va xizmatlar nomenklaturasining kengayishi, jami eksportda alohida tovar yoki xizmat turi (ayniqsa, xomashyo) ulushining katta bo‘lishiga barham berilishi, mahsulotlarimiz eksport qilinayotgan mamlakatlar geografiyasini kengaytirish eksport hajmining barqaror bo‘lishini ta‘minlaydi, milliy iqtisodiyotning tashqi bozordagi salbiy o‘zarishlarga ta‘sirchanligi darajasini pasaytiradi. Tashqi savdo aylanmasi diversifikatsiyasi – eksport va importning tovar nomenklaturasini va hamkor davlatlar sonining kengaytirilishi. Eksport tarkibida bir yoki bir necha tovarlar ulushining sezilarli darajada ortib ketishi bu tovarlar narxi pasaygan yoki ularga tashqi talab qisqargan holatlarda eksportchi korxonalarni og‘ir ahvolga solib qo‘yishi mumkin. Buning natijasida eksport hajmining qisqarishi valyuta tushumlarining kamayishi, tashqi savdo balansining yomonlashuvi va korxonalar moliyaviy ahvolidan tanglikka yuz tutishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, eksport umumiy hajmining kam sonli davlatlarga bog‘lanib qolishi ham qaltis holat hisoblanadi. Xorijiy davlatlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan, yoki ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish mumkin bo‘lgan mahsulotlarga bo‘lgan talabni o‘rganish, bunday tovarlar bozoriga kirib borish va raqobat qilish strategiyasini ishlab chiqish eksport qilinayotgan tovarlar sonini va mamlakatlar geografiyasini kengaytirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish sharoitida eksportga yetkazib berish hajmi va turlarini ko‘paytirish, raqobatbardosh, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag‘batlantirish, ularga mahsulotlarini yangi jahon va mintaqaviy bozorlarga olib chiqishda ko‘maklashish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga ko‘ra quyidagi imtiyozlar berildi[1]: - 2024 yil 1-apreldan boshlab yangi qurilish, mavjud ishlab chiqarishlarni modernizatsiyalash va texnologik yangilashga valyuta kreditlari bo‘yicha asosiy qarzni qaytarishga joriy to‘lovlar bo‘yicha yo‘naltiriladigan valyuta tushumi qismini vakolatli banklarga majburiy sotishdan asosiy qarz batamom to‘lab bo‘linadigan muddatga qadar ozod qilindi;

- sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatatsiyadan o‘tkazish, shuningdek laboratoriya testlari va sinovlarini o‘tkazish komplekslarini xarid qilishga yo‘naltiriladigan mablag‘larga

yangi texnologik uskunalarni sotib olishda nazarda tutilgan yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirishning amaldagi tartibi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun tatbiq etildi;

- eksport qiluvchi korxonalar (xomashyo tovarlarini sotish bundan mustasno) uchun foyda solig'i va mulk solig'i stavkasi umumiy sotish hajmida o'zi ishlab chiqargan va erkin almashtiriladigan valyutaga sotilgan tovar (ish, xizmat)lar eksportidagi ulushiga bog'liq holda kamaytiriladi:

- eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha miqdorda bo'lganida - 30 foizga; eksport ulushi 30 va undan ko'proq foiz bo'lganida - 2 marotaba. - mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi quyidagicha kamaytiriladi: umumiy sotish hajmida eksport ulushi 15 foizdan 30 foizgacha bo'lganida 30 foizga;

- eksport ulushi 30 va undan ko'proq bo'lganida - 2 marotaba. - 2026-yil 1-yanvarga qadar respublikadagi o'z mahsuloti hajmining, jumladan yarim tayyor mahsulotlarining (kalava, gazlama, trikotaj gazlama va paxta yigirish chiqindilari) 80 foizi va undan ortig'ini erkin almashtiriladigan valyutaga sotadigan to'qimachilik sanoati korxonalari mulk solig'i to'lashdan ozod qilindi.

- tijorat banklariga eksport operatsiyalari bo'yicha faktoring xizmatlarini amalga oshirishning cheklangan muddatini 60 kundan 90 kunga uzaytirgan holda eksport operatsiyalari bo'yicha faktoring xizmatlarini amalga oshirish hajmini kengaytirish tavsiya etildi.

- tovarlarni eksport qilishda to'lanadigan bojxona rasmiylashtiruv yig'imlarining amaldagi stavkasiga qaraganda o'rtacha 2 marotabaga kamaytirilgan yangi stavkalari tasdiqlangan.

O'tgan yillar mobaynida eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiyotimizning eksport salohiyatini yuksaltirish, tashqi savdo tarkibida ijobiy siljishlarga erishish, uning hajmini barqaror o'stirish imkonini bermoqda. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, respublikamiz tashqi savdo aylanmasi muttasil o'sib bormoqda. Xususan, bu ko'rsatkich 2024 yilda 30589 mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 6 foizga ortgan, 2019-yilga nisbatan 1,4-martaga ko'paygan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlar eksport salohiyatini oshirish dolzarb hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqilgan va amalga oshirib kelinmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida tashkil etildi. Jamg'armaning asosiy maqsadi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, ularga zamonaviy, chet el bozorlarida raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirishda va uni eksportga chiqarishda zarur moliyaviy, tashkiliy va huquqiy yordam ko'rsatish, mamlakatning

eksport qiluvchi tadbirkorlarini tashqi bozor konyunkturasi o'zgarishlari xavf-xatarlaridan ishonchli himoya qilishni ta'minlashdan iborat. O'tgan 2024 yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlari eksport faoliyatiga jalb etildi. Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimizning oltin valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'paydi[4]. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab quvvatlash jamg'armasining roli bu borada tobora oshib bormoqda. 2024 yilda mazkur Jamg'arma tomonidan 2 ming 400 ta tadbirkorlik subyektiga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatildi. Jamg'arma ko'magida tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzildi. Mazkur shartnomalar asosida 840 million dollardan ziyod tovarlar eksport qilindi[4]. Kichik biznes subyektlar tashqi savdo ko'rsatkichlarining holatini tahlil qiladigan bo'lsak, unda ularning eksporti 2019-2021 va 2022-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan bo'lsa, So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes subyektlar eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora tadbirlar ishlab chiqilishi va ularni amaliyotda qo'llanilishi natijasida ushbu sohaning jami eksportdagi ulushi ortib bormoqda. 2000-yilda kichik biznes subyektlarining eksportdagi ulushi 10,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2014-yilda qariyb ikki barobarga ko'payib 19,4 foizni tashkil etdi. So'nggi uch yil davrida kichik biznes subyektlarining eksport salohiyati mustahkakamlanib ulushi ortib bormoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzurida maxsus tashkil etilgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qo'llab quvvatlash jamg'armasi o'tgan qisqa muddat ichida 137 dan ziyod kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga mahsulot va xizmatlarni xorijiy mamlakatlar bozorlariga olib chiqishda, eksport shartnomalarini tuzish va vakolatli organlarda ro'yxatdan o'tkazishda, shuningdek zarur litsenziya va sertifikatlar olishlariga amaliy ko'mak berdi. Bu esa, tadbirkorlik subyektlari tomonidan jami 43,4 mln. AQSH dollari qiymatida eksport shartnomalarini tuzish imkonini berdi. Jamg'arma tomonidan quyidagi ko'rgazmada mamlakatimiz tadbirkorlik subyektlarining ishtirok etishlari tashkillashtirildi[4]:

Jamg'arma tomonidan xorijiy va ichki bozorlarni o'rganish natijasida quyidagilar aniqlandi: - xorijiy mamlakatlarni import mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini tizimli ravishda o'rganib chiqilmoqda va 83 ta xorijiy mamlakatlarining qurilish materiallari va xizmatlariga jami 105,25 mlrd. AQSH dollari miqdorida importga ehtiyoji borligi aniqlandi; - yaqin qo'shni MDX davlatlarini qurilish materiallari va xizmatlari importi o'rganilganda jami 11,70 mlrd. AQSH dollari miqdorida importga talabi borligi aniqlandi. - bugungi kunda mamlakatimizda 1563 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari qurilish sanoat mahsulotlarini

ishlab chiqarish bilan shug'ullanishi aniqlandi. Amalga oshirilgan tahlil va tadqiqotlar natijasiga ko'ra kichik biznes va tadbirkorlik subyektlar eksport salohiyatini yanada oshirish uchun quyidagicha xulosa va takliflar berish maqsadga muvofiq: - eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratishga alohida e'tibor qaratish natijasida iqtisodiyotimizning eksport salohiyati yuksaldi, tashqi savdo tarkibida ijobiy siljishlarga erishildi; - kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini eksport faoliyatini qo'llab- quvvatlash bo'yicha mexanizm yaratildi; - tadbirkorlik subyektlarining xalqaro va mahalliy ko'rgazmalarda faol ishtirok etishini ta'minlash; - kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari xodimlarini faol marketing siyosatini yurgizishda zamonaviy marketing tadqiqotlar usullarini egallashga amaliy yordam ko'rsatish; - tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot (xizmat)lar sifatini oshirish; - ishlab chiqarishda mahalliy xomashyolardan kengroq foydalanish hamda ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion texnologiya va texnikalarni jalb etish asosida mahsulot tannarxini kamaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ – 1731-sonli qarori 26.03.2012-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari eksportini qo'llab-quvvatlash borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2022-sonli qarori 08.08.2013-y.
3. Boltaboyev M.R. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, 2005, 40 b.
4. Проблемы и перспективы развития текстильной промышленности Узбекистана. Центр экономических исследований, Ташкент 2005, 64 с.
5. Bekmurodov A.Sh., Tursunov R.T., Xotamov I.S. Xalqaro biznes. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011, - 334 b.
6. www.nbu-export.uz